



# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqqan boshlagan

№18 (780), 2024-yil 30-sentabr

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



## ■ Bugunning mavzusi

# IQTISODIY ISLOHOTLAR

## taraqqiyotning asosiy poydevori

**Hayot shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Shu bois, yurtimizda asosiy e'tibor keng qamrovli islohotlar samaradorligiga qaratilgan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar yurt taraqqiyoti yo'lida poydevor vazifasini o'tamoqda. Kon-metallurgiya sanoati nafaqat yurtimizda, balki dunyo miqyosida ham jadal rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi.**

Navoiy kon-metallurgiya kombinati mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega yirik korxonalaridan biri sanaladi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan investitsion loyihalar natijasida kombinat har tomonlama rivojlandi, oltin ishlab chiqarish bo'yicha jahonda katta beshlikka kiruvchi kompaniyaga aylandi.

O'zbekistondagi makroiqtisodiy barqarorlik, tabiiy resurslarning ulkan zaxirasi va malakali ishchi kuchining mavjudligi tufayli keyingi yillarda boshqa sohalar qatorida kon-metallurgiya korxonalariga ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi. Jahonning ko'plab yetakchi moliyaviy institutlari bu sohada olib borilayotgan o'zgarishlar va uning istiqboliga ishonch bilan qaramoqda. Bu borada biz amaliy ishlarni olib boryapmiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining tahliliy sharhida quyidagidek ta'kid etilishicha, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida yalpi ishlab chiqarish hajmi 6,4 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7,8 foizga o'sishi kuzatilgan. Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan tog'-kon sanoatida qayd etiladi. Bugungi globallashuv davri boshdan kechirayotgan jahon hamjamiyatida iqtisodiy jarayonlar jadallashib, raqobat tobora kuchaymoqda. Bunday sharoitda mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarini isloh qilmasdan ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi.

Sanoatning yetakchi sohalari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish jarayonlarini yakunlash 2022-2026-yilgacha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi muhim vazifalar qatoridan o'rin olgan. Yurtimizda transformatsiya jarayoni, birinchi navbatda, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridagi strategik korxonalarida amalga oshirilmoqda. Kon-metallurgiya sanoati ushbu islohotlarning asosiy ishtirokchilaridan biriga aylandi va Navoiy kon-metallurgiya kombinati bu jarayonga birinchilardan bo'lib jalb etildi.

Kombinatni isloh qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borildi. Jumladan, zamonaviy gidrometallurgiya zavodlari, yangi kon-shaxta va boshqa obyektlarni qurish, korxonalar quvvatlarini oshirish hisobiga korxonada ishlab chiqarish hajmi, iqtisodiy ko'rsatkich va natijalar yildan-yilga o'sib borayapti. Masalan, 2016-yilda 60,1 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 75,5 trillion so'mni tashkil qildi va o'tgan davrga nisbatan ishlab chiqarish ko'rsatkichi 26 foizga oshdi.

Kombinatda joriy yilning yanvar-avgust oylari davomida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 57,6 trillion so'mni tashkil qilib, o'sish sur'ati 106,1 foizga ta'minlandi. Investitsiya dasturi doirasida 468,2 million dollar mablag'lar o'zlashtirilib, prognoz ko'rsatkich 100,3 foizga bajarildi. Natijada kombinat tizimida qo'shimcha 367 ta yangi ish o'ri tashkil qilindi. Shu bilan birga, 177 ta mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha 619 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgani e'tirofli hisoblanadi. Bu esa, valutani iqtisod qilish bilan birga kombinat faoliyatida yangi imoniyatlarini yaratib berdi.

Kombinat tarixida ilk bor "Fitch Ratings" hamda "S&P Global Ratings" xalqaro reyting agentliklari tomonidan "Barqaror" prognozi bilan "BB-" darajasidagi uzoq muddatli kredit reytingi olindi. Ayni paytda kombinatning 2023-2025-yillarga mo'ljallangan dastur doirasida xomashyo bazasini rivojlantirish, asosiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqamlashtirish, investitsion jarayonlarni rivojlantirish, ESG va sanoat xavfsizligini ta'minlash hamda boshqa yo'nalishtirish rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, yirik sanoat kompaniyasi balansidagi qimmatbaho metallar zaxiralarini Avstraliya "JORC Code" kodeksi standartlari talablari asosida qayta baholash, yetakchi konsalting kompaniyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini takomillashtirish borasida ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2022-yildan boshlab kombinatning moliyaviy hisobotlari Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tayyorlanib, nashr etilmoqda va xalqaro auditorlik kompaniyalari tomonidan ijobiy xulosa olinmoqda.

Joriy yilda kombinatda mahsulot tannaxrini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida oltin tannaxrini 3,6 trillion so'mga kamaytirish kutilmoqda. Jumladan, yoqilg'i energietika resurslari sarfini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish hisobiga 547,2 milliard so'm, ehtiyot va butlovchi qismlarni mahalliyashtirish,



import o'rini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish, xaridlar jarayonini optimallashtirish hisobiga 1212,8 milliard so'm, asosiy fondlar samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirish hisobiga 752,9 milliard so'm, texnik jihatdan modernizatsiyalash, texnologik yo'qotishlarni kamaytirish hisobiga 742,6 milliard so'm, texnologik jarayonlarni raqamlashtirish hisobiga 215,8 milliard so'm hamda boshqa xarajatlarni kamaytirish hisobiga 131,1 milliard so'm mablag'larning iqtisod qilinishi ta'minlanadi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannaxrini kamaytirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar hisobidan kombinatda oltin tannaxri jahonning yirik kompaniyalari safida eng pastlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, 2023-yil yakunlari bo'yicha kombinat tomonidan ishlab chiqilgan 1 unsiya oltinning tannaxri xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan "AISC" usuli bo'yicha 866 dollarni tashkil qildi. Bu o'z navbatida yakuniy moliyaviy natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'tgan 2023-yilda sof foyda summasi 14,9 trillion so'mni (1,3 milliard AQSh dollari ekvivalenti) tashkil etdi, bu kombinatning barqaror moliyaviy holatini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, asosiy faoliyatning samaradorligini ifodalovchi "EBITDA" bo'yicha rentabellik ko'rsatkichi 58,1 foizni

tashkil etib, yetakchi jahon amaliyotlari darajasiga mos keldi.

Oltin ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar NKMKni jahonning oltin ishlab chiqaruvchi kuchli o'lnikdagi kompaniyalar safida yetakchi o'rinlarga olib chiqdi va uni eng boy yerosti boyliklarini muvaffaqiyatli o'zlashtirayotgan yuqori darajada rivojlangan sanoat majmuasi va eng yangi texnologiyalarga ega bo'lgan kompaniyaga aylantirdi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarining foydalanishga topshirilishi samarasi o'laroq, kombinat oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalar reytingida 2016-yildagi 7-o'ringidan 2022-yilda 4-o'ringa ko'tarildi.

Kombinat mamlakatimizning eng yirik soliq to'lovchilari ro'yxatida peshqadamlik qilib kelmoqda. Birgina 2023 yilda davlat budgetiga to'langan soliqlar va dividendlar summasi 38,6 trillion so'mni tashkil qilib, budget daromadlarining 15,9 foizini (bojxona to'lovlarisiz) ta'minladi.

Bu yilgi ko'zlangan marralarimiz oldingi yillardagidan ham yuqori. Yil yakuniga qadar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 87 trillion so'mga yetkazib, o'sish sur'atini 2023-yilga nisbatan 105,3 foiz bo'lishini ta'minlashni rejalashtirganmiz.

Davomi 2-betda ▶

## ■ Xabarlar

**"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatida xalqaro konsultant ishtirokida kompaniyaning xalqaro axborot makonidagi imidjini oshirish bo'yicha seminar-trening bo'lib o'tdi.**

## KOMPANIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISH YO'LIDA

Joriy yilning 18-19-sentabr kunlari "Montfort Eurasia" kompaniyasi vakillari tomonidan kombinat matbuot xizmati xodimlari uchun "Kompaniyaning xalqaro axborot makonidagi taqdimoti" mavzusida seminar-trening o'tkazildi. Ushbu tadbirlar davomida manfaatdor tomonlar, jumladan, ommaviy axborot vositalari, moliya institutlari, davlat organlari va professional hamjamiyatning boshqa maqsadli guruhlari bilan aloqalarni yo'lga qo'yish mavzulari ko'rib chiqildi. Shuningdek, kompaniyaning korporativ brendi bilan bog'liq barqaror ijobiy jihatlarini yaratish uchun turli vositalar taqdim etildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati O'zbekiston iqtisodiyotining bayroqdori hamda ulkan salohiyat va imkoniyatlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda xalqaro axborot makonida yuksak e'tiborga loyiqdir, – deydi "Montfort Eurasia" kompaniyasining hududiy bo'linmasi rahbari Eleonor Kramers. – Bugungi kunda "NKMK" aksiyadorlik jamiyati sifatida kompaniyaning jahon hamjamiyati oldida barqaror imidjini shakllantirishi, xalqaro hamkorlikning samarali aloqalarini yo'lga qo'yishi muhim sanaladi.

Ikki kunlik tadbir doirasida ishtirokchilar munozaralarda turli mavzularni, jumladan, press-relizlar tayyorlash usullari ustida ishlash, intervyular o'tkazish va inqirozli kommunikatsiyalarni boshqarishni interaktiv tarzda muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

## MARKAZIY ILMIY-TADQIQOT LABORATORIYASIDA

**qimmatbaho metallni ajratib olishning yangi texnologiyalari ishlab chiqilmoqda**

"NKMK" AJ Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasining texnologik laboratoriyasida mineral xomashyodan foydalanish samaradorligini oshirish, oltin tarkibli aralash ma'danlarni qayta ishlashning texnologik parametrlarini aniqlash bo'yicha doimiy izlanishlar olib borilmoqda. Qayta ishlash texnologiyasi sxemasi gravitatsion-sorbtsiya va flotatsion-sorbtsiya usullariga asoslanadi.

Laboratoriyada "Nuqraon" va "Kosmonachi" konlaridan qazib olinadigan kumush tarkibli birlamchi ma'danlarni qayta ishlash texnologiyasi ishlab chiqilmoqda hamda flotatsion konsentratni qayta ishlash yuzasidan tadqiqotlar davom etmoqda.

Texnologik laboratoriyada yaratilayotgan yangi usul va texnologiyalar kon-metallurgiya ishlab chiqarishning zamon talabi darajasida bo'lishi, ilm-fanni, qimmatbaho metallni ajratib olishning yangi texnologiyalarini rivojlantirish imkonini bermokda.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati.

## HAMKORLIK ALOQALARI KENGAYMOQDA

2019-yilda Shimoliy kon boshqarmasi 3-gidrometallurgiya zavodida chiqindilarini qayta ishlashga mo'ljallangan Filtrlash, quritish va kuydirish bo'yicha yangi yuqori texnologiyalarga asoslangan majmu foydalanishga topshirilib, uni amalga oshirishda Germaniyaning "Engineering Dobersek GmbH" kompaniyasini mutaxassislari jalb etilgandi. Ushbu loyiha evaziga Germaniya davlatining xalqaro patent qo'lga kiritilganligi ishlab chiqarishga yangi yondashuv shakllanayotganligini hamda kombinat mutaxassislarining ilmiy salohiyatining yorqin namunasi bo'ldi.

Mazkur kompaniya ta'sischi Albin Dobersek va serbiyalik ishbiarmon Nikola Popovich shu kunlarda kombinatning bir qator ishlab chiqarish obyektlarida bo'lib, yirik sanoat korxonasi faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Ular ma'dandan oltin ajratib olish va kuydirish texnologiyalari bo'yicha taqdimotlar bilan qatnashdilar. Ayniqsa, 3-gidrometallurgiya zavodining Filtrlash, quritish va kuydirish majmuasi hamda Navoiy mashinasozlik zavodida bo'lib, kelgusida yangi texnologiyalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va uni joriy etish yuzasidan hamkorlik qilish borasida rejalarni belgilab oldilar.

Azamat ZARIPOV.

## ■ 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni

# KASBIDA KAMOL TOPGAN AYOL

**Dunyoda barcha kasblarning o'z o'rnini, sir-asrorlari, talabu mashaqqatlarini bor. Har bir inson o'zi xohlagan kasbni egallab, uning mohir ustasi bo'lishni, jamiyatimizga foydasi tegishini, yurtimiz rivojiga hissa qo'shishni orzu qiladi. Bugun o'nlab shogirdlariga kasbining sir-asrorlarini o'rgatib kelayotgan Zarafshon qurilish boshqarmasi "Zarafshon" qurilish-montaj boshqarmasi bo'yoqchisi Hafiza opa Amrullayeva o'z kasbiga sadoqati tufayli jamoasi behad qadrlaydi.**

Hafiza opaning yoshlik yillari o'tmishi qadim, kelajagi nurli zamin Nurotada o'tdi. Tumanning tarixiy mavzularida bir qo'lida qalam, bir qo'lida kitob ushlab o'rta maktabni a'lo baholarda tugatib, otasi kabi o'qituvchi bo'lishni niyat qildi.

– Esimda, – deydi Hafiza opa Amrullayeva yoshlik yillarini xotirlab. – Otam Bahron Cho'liyev tumanimizdagi 18-o'rta maktabda o'qituvchi bo'lib ishlardilar. O'qimishli, ziyoli, ko'pni ko'rgan kishi bo'lganliklari bois, biz farzandlarning tarbiyasiga juda qattiq qarardilar. Men oilaning katta farzandi bo'lganim uchun ota-onaga yelkadosh bo'lish fikri bo'lganimdan o'ngingma singdirilgan edi. Uch nafar singlim va ikki ukamga kechalari mo'ychiroqning yorug'ida bir-biridan qiziq hikoya va romanlarni o'qib berardim. Shundanmi, o'qishga havasim bolalikdan boshlangan.

Hafiza opa yoshligida orzu qilgan kasbni egallay olmadi. Taqdir uni o'zi yilganidan ham zavqliroq kasb tanlashiga imkon berdi. Kelinlik sar-polarini kiyib, yangi hayotga qadam qo'ygani ilk kunlarida uni Zarafshon qurilish boshqarmasiga ishga qabul qilishdi. "Rahmatli qaynotam va qaynotam, qolaversa, turmush o'rtog'im ham shu korxonada ishlaganliklari bois, menga ish topilishi onon kechgan. Qolaversa, u vaqtlarda Zarafshon shahridagi korxonada, tashkilotlarda bo'sh ish o'rinlari bo'laridi", – deydi qahramonimiz. Yoshligidan rasim chizishga ishtiyoqi baland Hafiza opa o'z-o'zidan bo'yoqchilik kasbini tanlagan. U tanla-

gan kasbining mohir mutaxassisi bo'lishga qiziqdi va maqsadiga erishish yo'lida tinmay harakat qildi, izlandi. Mana, qariyb 35 yildirki, u Zarafshon qurilish boshqarmasi tomonidan bunyod etilgan katta-katta obyektlar, zavodu boshqarmalar qurilishida, ta'mirlashda belgilangan vazifalarni sidqidildan bajarib, o'ziga bildirilgan ishonchni oqlash barobarida ko'plab xotin-qizlarga ham ta'mirlash ishlarni o'rgatib kelmoqda.

– Ishimiz qiyin bo'lishi mumkin, lekin, bunga allaqachon ko'nikib ketdim, – deydi samimiy kulib. – Ba'zida katta obyektlarni ishga tushirish muddatiga yaqin qolgandagina ishimiz ortgandan-ortadi. Chunki, vaqt aniq, sana belgilangan. Tantanalni topshirishda bizga bildirilgan minnatdorchiliklardan so'ng bir zumda charchog'im ham unutiladi. Ilk mehnat faoliyatini 1989-yilda maxsuslashtirilgan pardozlash-qurilish ishlari boshqarmasi bo'yoqchisi sifatida boshlagan qahramonimiz o'n besh yillik tajribasidan so'ng o'zi kabi bo'yoqchilarga brigadir etib tayinlandi. Jamoa bilan ishlash, muammolarga yechim topib, uni bartaraf etish bo'yicha takliflar berib, yetuk kadr ekanligini ko'rsatdi. U o'ziga nisbatan o'ta talabchan. Bugun ishlagan jamoasida 40 nafarga yaqin xotin-qizlar ishlayshadi. Ularning ko'pchiligi allaqachon o'z ishini ustasi bo'lib ulgurishgan. Uchquduq tumanidagi 3-gidrometallurgiya zavodi, Zarmi-tan qo'rg'onidagi 4- hamda Zarafshon shahridagi 5- va 7-gidrometallurgiya zavodlari, "Aminzo-



Amantoy" shaharchasi, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti kabi ko'rkam, zamonaviy qiyofa kasb etgan binolar ularning mehnatlari mahsuli hisoblanadi.

Har bir kasb sharafli. Faqat buni chin yurakdan, qalbdan anglagan, bor mehrini shu sohaga bergan odam his qila oladi. Albatta, chinakam fido-yilik hech qachon besamir ketmaydi. Hafiza opa o'z mehnat faoliyati davomida amalga oshirgan samarali mehnati orqali obro'-e'tibor topib, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Zarafshon qurilish boshqarmasi rahbariyati va Zarafshon shahar hokimining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan. U 2005-yilda "Shuhrat" medaliga sazovor bo'lgan.

Kasbida va oilasida baxtni, baxtiyorlikni tuygan H.Amrullayeva turmush o'rtog'i, Zarafshon qurilish boshqarmasining bosh payvandchisi Bobir

aka bilan ibratli hayot kechirib, 3 nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazishdi. Ularni oliy ma'lumotli mutaxassislar qilishgan ota-ona farzandlari bilan faxrlanib, hayotlari mazmunini ularning kamolida ko'rishadi. Hayot yo'li ko'plab uchun ibrat bo'lgulik qahramonimizning baxtli inson ekanligiga yana bir sabab bor. Bugun u ustoz, do'stu qadrdon sifatida shogirdlari, hamkasblari ehtiromida.

– Hafiza bilan bir davrda ishlab kelyapmiz, ko'plab obyektlarda mehnatimiz singdi, – deydi Zarafshon qurilish boshqarmasi "Zarafshon" qurilish-montaj boshqarmasi 4-sonli uchastkasi ish bajaruvchisi Sobir aka Mahmudov. – U tabiatan kamgap, o'rni kelganda shaddod, quvnoq. Ish jarayonida esa hamisha mas'uliyatli. O'ziga topshirilgan ishni vaqtda bajarishga odatlangan. Jamoadagi ko'plab xotin-qizlarga o'z kasbining pastu balandini o'rgatadi. Ayni vaqtda 5-gidrometallurgiya zavodining ma'muriy xo'jalik binosini qayta ta'mirlayapmiz. Hafiza shu yoshda ham shogirdlari bilan barobar 3-4 metr balandlikdan to'10-15 metr yuqorilikda ham ta'mirlash ishlarni bajaryapti.

Biz opa bilan ish, oila va hozirgi bo'layotgan o'zgarishlar haqida ancha suhbatlashdik. H.Amrullayevaning o'z qarashlari, fikrlari bor. – Qani, ilgirigidek, yosh bo'lib qolsam, – deydi samimiy kulib. Opa hozir 54 yoshda. G'ayrati, shijoati ichiga sig'maydi. Yurtga yordamim tegsa, deb o'ylaydi, mehnat qilishdan charchamaydi. Men bilan suhbatlashyapti-yu, go'yo o'ziga berilgan vazifa qolib ketayotgandek his qilib, tez-tez qo'l telefonidagi soatga qarayapti. Ha, u kasbining fidoyisi, ko'plab xotin-qizlarning ustoz. Ushbu manzaralarini ham buyuk rassom misol chiza olgan oqila beka, sevimli yor va suyuqlik ona! Hayot yo'llarida aslo charchamagan, degimiz keldi Hafiza opaga!

Nafosat ZIYOYEVA.

■ Bugunning mavzusi

# IQTISODIY ISLOHOTLAR

## taraqqiyotning asosiy poydevori

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Joriy yilda investitsiya dasturi doirasida 11 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Yil yakuniga qadar umumiy qiymati 402,2 million AQSh dollar bo'lgan ikkita investitsiya loyiha, jumladan, "Pistali konida oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish" hamda "Amudaryo-Zarafshon suv quvurining 3-liniyasini qurish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish" investitsiya loyihalari foydalanishga topshiriladi. Pirovardida tizimda 490 ta yangi ish o'ri tashkil etiladi hamda qo'shimcha quvvatlar paydo bo'ladi.

Mamlakatimizning asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi "O'zbekiston – 2030" strategiyasida kon-metallurgiya sanoatini rivojlantirish uchun katta marralar ko'zlangan. Jumladan, 2030-yilga borib, O'zbekistonda yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo'lgan oltinni – 1,5 barobar, kumushni – 3 barobar, uranni – 3 barobar, mis ishlab chiqarishni 3,5 barobarga oshirish belgilangan.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida kelgusi olti yilda 20 dan ortiq yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Xususan, "Kokpatas va Dovgiztov oltin konlarida ma'dan qazib olishning 3-bosqichi", "Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi Sarmish koni zaxirasini ochish va qayta ishlash", "Nuqrakon" va "Kosmonachi" konlaridan kumush tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish", "7-GMZ qayta ishlash quvvatini kengaytirish", "Oltinni uyumda eritish sexini rekonstruksiya qilish", "Yangi Dovon-Toshkon konida ma'danlarni qazib olishni kengaytirish", "Muruntov konini o'zlashtirishning (V navbati) 2-bosqichi" kabi investitsiya loyihalari hayotga tatbiq etish natijasida nafaqat qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmi oshadi, qo'shimcha yangi ish o'rinlari yaratiladi.

7-sonli gidrometallurgiya zavodi zamonaviy texnologiyalar asosida texnogen (avval ishlangan) chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha dunyodagi eng yirik korxonalaridan biri hisoblanadi. Texnogen chiqindilarni qayta ishlashning muhim jihatlardan biri, bu - ma'danni qazib olish, texnologiyani maydalash, saralash va tashish uchun xarajatlarning yo'qligidir. Bunday choralar zavodda ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxini sezilarli darajada pasaytirishga olib keldi. Xususan, hozirgi kunda 1 unsiya oltinning dunyo bozorida narxi 2 500 dollar atrofida bo'lsa, 7-sonli gidrometallurgiya zavodida oltin ishlab chiqarish tannarxi 772 dollarni tashkil qilmoqda. Bu tanlangan texnologiyani naqadar samarali ekanligini isbotlab, kombinat mutaxassislarining olamshumul yangiliklar yaratishga qodir ekanligining yorqin namunasidir.

Ushbu yirik loyihalarni moliyalashtirish davlat kafolatsiz xorijiy banklarning kredit mablag'larini hisobidan amalga oshirilmoqda. 2020-yildan boshlab investitsiya loyihalari xorijiy banklarning garovsiz ta'minot evaziga berilgan kredit mablag'larini hisobiga moliyalashtirilmoqda. 2020-2023-yillar davomida kombinat tomonidan davlat kafolatsiz 2,5 milliard dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kreditlar jalb qilindi. Xususan, 2022-yilda NKMK tomonidan "JP Morgan & Chase", "Citi", "Societe Generale", "Credit Suisse", "ICBC Standard", "Halyk Bank" kabi yetakchi xalqaro banklarning 5 yil muddatga 1,2 milliard AQSh dollari miqdorida uzoq muddatli sindiklangan krediti jalb qilindi. Mablag'lar umumiy korporativ maqsadlarni va kombinatning Investitsiya dasturini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Investitsiya loyihalari istiqbolli amalga oshirilishi va kelgusi davrlarda yirik samaradorlikka erishish uchun hozirgi o'zidayoq kombinatimiz tomonidan ko'plab loyiha, geologik, texnologik va ekologik qidiruv ishlari olib borilmoqda. Qolaversa, investitsiya loyihalari ishlab chiqishda xalqaro ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini joriy etish bo'yicha tahliiliy ma'lumot va hisob-kitoblar tayyorlanmoqda. Ayni paytda loyihalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish ishlari, ya'ni loyiha konsepsiyasi, yiriklashtirilgan texnik-iqtisodiy asoslar yo'nalishida izchil ishlar bajarilmoqda. Bu vazifalarni o'z vaqtida bajarish va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yanada oshirish uchun kombinat barcha imkoniyat hamda resurslarni ishga soladi.

Kombinatda kelgusida tog'-kon sanoatida dunyoning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda ishchi-xodimlarining o'zaro tajriba almashinishini tashkil etish, xorijiy kompaniyalarda mahalliy kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi. Bu esa, zamonaviy kon-metallurgiya sanoati majmuasini boshqarish uchun malakali, zamonaviy kadrlar zaxirasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yirik soliq to'lovchi korxonaga hisoblangan Navoiy kon-metallurgiya kombinatida amalga oshirilayotgan iqtisodiy-iqtisodiy islohotlar mamlakat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Baquvvat iqtisodiy potentsialga ega kombinatimizning ishlab chiqarish quvvatining sezilarli darajada oshishi, zamonaviy kompaniyalar qatoridan muqim joy olishi kelgusida xalqaro hamjamiyatdagi obro'yini oshiradi. Bir so'z bilan aytganda, Yangi O'zbekistonning tashrif qog'oziga aylangan.

**Jahongir HASANOV,**  
"NKMK" AJ Bosh direktorining iqtisod va moliya bo'yicha o'rinbosari.

■ 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni

O'qituvchilar va murabbiylar kuni O'zbekistonda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Bugun ushbu qutlug' ayyomni mamlakatimizda keng nishonlar ekanimiz, birinchi navbatda qadrdon maktabimiz, bizga harf o'rgatgan, ezigulikdan saboq bergan mehribon muallimlarimiz siymosi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

# YUKSAK E'TIROF NISHONASI

Biz uchun ibrat namunasi, yuksak insoniy fazilatlar timsoli bo'lgan aziz va mo'tabar zotlar sha'niga eng go'zal so'zlar, ezgu tilaklarimizni izhor etamiz. Ustozlarning barchasiga hech qachon uzib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi bilan ta'zim qilamiz. Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, dunyoning bor boylik va xazinasi bilan ham sizlarning olijanob mehnatingiz haqini ado etib bo'lmaydi. Haqiqatan ham, har bir murg'ak bolani o'z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar tom ma'noda fidoiy kasb egalari.

Biz uchun ibrat namunasi, yuksak insoniy fazilatlar timsoli bo'lgan aziz va mo'tabar zotlar sha'niga eng go'zal so'zlar, ezgu tilaklarimizni izhor etamiz. Ustozlarning barchasiga hech qachon uzib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi bilan ta'zim qilamiz. Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, dunyoning bor boylik va xazinasi bilan ham sizlarning olijanob mehnatingiz haqini ado etib bo'lmaydi. Haqiqatan ham, har bir murg'ak bolani o'z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar tom ma'noda fidoiy kasb egalari.

Barcha sohalarda keng ko'lami o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan muvosiib o'rin egallashi avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'la olishimiz bilan bog'liq, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, har bir soha rivojiga yuksak e'tibor natijasi bo'lgan ishlarni hayotga samarali joriy qilish, ularga bamsoli jon baxsh etishda biz avvalo, aziz o'qituvchi va murabbiylarga, ularning bilim va tajribasi, iste'dod va mahoratiga suyanamiz. Ayni damda Shimoliy kon boshqarmasining "Sharqiy" konida g'ayratli, bilimli va mehnatga chanqoq yoshlar faoliyat yuritadi. Kon jamoasiga Bobur Sayfiddinov rahbarlik qiladi. Korxonada "Ustoz-shogird" an'anasi yaxshi yo'lga qo'yil-

gan. Bugun "Sharqiy" konida ishlayotgan ko'plab xodimlarga kasb sirlarini o'rgatib kelayotgan ekskavator mashinisti, "Konchilik shuhrati" ko'krak nishonining uchta darajasi sohibi Jamoliddin Mamaraximov, bosh muhandis Odil Yormatov, bosh geolog Xayrulla Bandayev, bosh marksheyder Farrux Norqulov, 3-darajali "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni sohibi, ishlab chiqarish texnika bo'limi boshlig'i Egamberdi Ro'ziboyev, uchastka boshliqlari Alimardon Ergashev, Bahrom Bozorov, Jamol Ibo-dullayev, Djamsheed Fozilov, ekskavatorchilar brigadiri Hasan Quvondiqov, Feruz Fayzullayev, 3-darajali "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni sohibi

Jasur Toshev, Jamol Eshmamatov, Aqaris Qanarboev, Murat Muljumanov, Sergey Rimmer, burg'ilash qurilmasi brigadir mashinistlari Kamoliddin Shernazarov, Yerbol Axinbasov, Javlon Umarov, G'ayratjon Shomurodovlarning fidokorona mehnati tufayli kon doimo ilg'orlar safida. "Sharqiy" konda faoliyat ko'rsatayotgan "Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi Bashorat Tursunova, "NKMK faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan Maxbuba Yarashvalar mamlakatimizda, qolaversa kon boshqarmasida ayollar o'z o'miga ega ekanligining isbotidir.

Ustoz va murabbiylarning yangi O'zbekistonni barpo etish, yurtimizni dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shish yo'lidagi mas'uliyatini va ayni paytda sharafli mehnatlari Prezidentimiz, hukumatimiz va xalqimiz tomonidan e'tirof etilmoqda. 1 oktabr mamlakatimizda O'qituvchi va murabbiylar kuni sifatida nishonlanishi ustozlarga hurmat va ehtiromning nishonasidir. Ularning barchasiga qutlug' kon arafasida "Doimo sog'omon bo'ling, aziz ustozlar!" deymiz.

**Nilufar RO'ZIYEVA,**  
Shimoliy kon boshqarmasi mutaxassisi.

# USTOZLIK — OLIY MAQOM

Ilm-fan, kasb-hunar sohasida nimadir o'rgatgan kishilarni dono xalqimiz hurmat va ehtirom ila e'zozlab ustoz deydi.



"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati Kadrlar boshqarmasi xodimlarni baholash va attestatsiya qilish bo'yicha yetakchi mutaxassisi - Uchqun Ergashev o'z kasbi, bilimi va hayotda to'plagan tajribasi bilan obro' topgan ustozlardandir.

U 1962-yilda Navbahor tumanida oddiy ishchi oilasida tug'ilgan, yoshligidan huquqshunoslikka bo'lgan qiziqishi tufayli harbiy xizmatdan so'ng, 1987-yilda Toshkent ijtimoiy ta'minot texnikumiga o'qishga kirib "huquqshunoslik va hisob" yo'nalishi bo'yicha, keyinchalik esa (2005-yilda) Moskva davlat geologiya qidiruv universitetini "iqtisodchi-menejer" yo'nalishi bo'yicha sirdan o'qib tugatdi.

O'z mehnat faoliyatini 1986-yilda Karmana tumani ijtimoiy ta'minot bo'limida boshlab, uzoq yillar Karmana tuman, Navoiy shahar ijtimoiy ta'minot bo'limlari va Navoiy viloyati boshqarmasida pensiya tayinlash bo'yicha inspektor, buxgalter-tafishchi, bosh mutaxassis, boshliq o'rinbosari, bo'lim boshlig'i lavozimlarida mehnat qilib, tajriba ortirdi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatidagi faoliyatini esa 1992-yildan NKMK boshqarmasi Pensiya bo'limida hisobchi lavozimidan boshlab va 2014-yilga qadar bo'lim boshlig'i o'rinbosari, bo'lim boshlig'i lavozimlarida davom ettirdi. 2014-yildan e'tiboran Kadrlar boshqarmasida yetakchi mutaxassis sifatida, kombinat xodimlariga pensiya rasmiylashtirish bo'yicha hujjatlarini tayyorlash va ularga qonuniy tushunchalar berish, kombinatda ishlab bugungi kunda pensiyada bo'lgan pensionerlarga Jamoa shartnomasida belgilangan imtiyozlarni taqdim etish, shuningdek, kombinatda ishlab, bugungi kunda xorijiy davlatlarda yashayotgan fuqarolarga, ularning kombinatdagi

ish faoliyatlariga doir ma'lumotlar hamda pensiya tayinlash masalalari bo'yicha murojaatlarini o'rganib chiqib, ijobiy hal etishda amaliy yordam berib kelmoqda.

Uchqun Ergashev nafaqat o'z ishini biladigan yetakchi mutaxassis, balki yaxshi ustoz hamdir. Ulardan shogirdlari haqida so'raganimizda "Ayni vaqtdagi mavqeimga erishishimda aziz insonlar va ustozlarimning o'rni borligini ta'kidlamoqchiman, deya so'z boshladi u. – Bular, avvalo ota-onam, so'ng maktabda va oliygohda, ishdagi ustozlarim Sh.Ergasheva, G.Qayumov, L.Bakshyev, E.Xamidullinalardir. Shogirdlarga keladigan bo'lsak, ustozlarim menga ilm va ish o'rgatganlaridek, men ham qo'limdan kelganicha yoshlarga yordam berishga, bilganlarim bilan o'rtoqlashishga harakat qilmoqdaman. Bugungi kunda Pensiya jamg'armalari korxonalarida faoliyat yuritib kelayotgan O.G'aybulayev, R.Amonovlarni, kombinat bo'linmalari kadrlar tizimida ishlayotgan Z.Sherova ("Qizilqum"KB kadrlar bo'limi guruhi rahbari), O.Xamidov (Shimoliy KB kadrlar bo'limi boshlig'i) hamda M.Narbayevlarni (Shimoliy KB kadrlar bo'limi guruhi rahbari) faxr bilan shogirdlarim deya olaman.

Uchqun Ergashevning ko'p yillik mehnatlari munosib baholanib, O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligining faxriy yoriqlari va kombinatning 3-darajali "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni bilan mukofotlangan.

Ustozlik maqomi-oliy saodat. Kamolot yo'lida bizga soliq, hayotda o'z o'rmining topishimiza ko'mak bergan muhtaram ustozu muallimlarimiz oldida bir umr qarzdormiz.

**A.AXMEDOVA.**

# ДЕЛИТЬСЯ ОПЫТОМ НИКОГДА НЕ ПОЗДНО

**Наш Навоийский горно-металлургический комбинат по праву гордится целой плеядой высококлассных специалистов, выросших на просторах его производств. Многие из «старой» гвардии уже на заслуженном отдыхе, но не перестают интересоваться жизнью комбината, следят за его достижениями, радуются успехам и победам, делятся советами.**



Один из них - Владимир Петрович Истомин, полный кавалер орденов нагрудного знака «Горняцкая слава», поощрён памятными знаками к 10-летию Независимости Республики Узбекистан и к 50-летию Навоийского ГМК, автор научных статей по специфике добычи урана, опубликованных в отраслевых журналах Узбекистана и России.

Его общий геологический стаж более 50 лет. Молодым специалистом после окончания Среднеазиатского техникума Владимир Петрович начал трудовую деятельность в Казахстане, где 7 лет проработал геологом в Красногорском подразделении Целинного горно-химического комбината. Затем 4 года работал в городе Чкаловске (Таджикистан) на шахте, где проводились уникальные горные работы по добыче урана методом подзем-

ного выщелачивания из гранитного трещиноватого массива.

- Это был очень познавательный и интересный опыт работы, - вспоминает Владимир Петрович. - А когда шахту закрыли, я стал работать геологом в филиале Всесоюзного научно-исследовательского института гидрогеологии и инженерной геологии (Всегингео), который находился в Чкаловске и назывался «Ленинабдская опытно-методическая экспедиция» (ЛОМЭ). Здесь мы работали именно по месторождению Бухинай в Кызылкумах - проводили исследования и изыскания по расширению его сырьевой и технической базы. В 1985 году меня отправили на полгода в командировку в Кочу, где базировалась опытно-методическая партия подземного выщелачивания. Друзья, которые уже побывали там, отговаривали от поездки, сравнивали местность с Луной. Но мне эта «Луна» понравилась, и моя командировка растянулась на 40 лет. И продолжается по сей день...

Владимир Петрович особенно отметил, что коллектив состоял из грамотных, инициативных и ищущих специалистов, да и сама работа была интересной. Начинать он главным геологом опытно-методической партии подземного выщелачивания. В этот период окончил заочно Свердловский горный институт по специальности «Геологическая съёмка, поиски и разведка месторождений полезных ископаемых».

За это время произошли изменения и в структуре Всегингео - институту было непрофильно заниматься подземным выщелачиванием урана и партию передали во Всесоюзный научно-исследовательский институт химической технологии. Партию переименовали в экспедицию, Владимир Петрович стал её начальником. И так работали до 1991 года.

В 1994 году В.П.Истомин перешёл геологом в ГРЭ-18 Кызылтепагеологии, где занимались поисковыми и разведочными работами. В 1998 году, когда РУ-5 вошло в структуру НГМК, Владимир

Петрович 17 лет работал здесь на разных должностях - главным геологом ГТР-2 (геотехнологического рудника), главным инженером ГТР-3, главным геологом РУ-5, начальником ГТР-1, ГТР-2, главным геотехнологом РУ-5.

Подход к работе у В.П.Истомина всегда был творческий. За эти годы он стал автором и соавтором 5 запатентованных изобретений, которые нашли своё применение в практике. Самое первое изобретение успешно работает уже больше 10 лет - это «Пакеурющее устройство для геотехнологических скважин для производства НСВ (нагнетания сжатого воздуха под большим давлением)». Благодаря этому изобретению появилась возможность добычи урана из руд, которые раньше считались технологически забалансом. Данное изобретение позволило увеличить добычу по месторождению, и геотехнологический рудник №1 был выведен на высокие технико-экономические показатели. В целом, с момента его внедрения добыты уже тысячи тонн урана. Также в 2009 году им получен патент на изобретение новой технологии отработки карбонатных глубоко залегающих руд, экономический эффект от внедрения которого за первые два года составил 67 млн сум. При освоении месторождения Лявлякан В.П.Истомин предложил внедрить изменение схемы вскрытия полезного ископаемого, и, в результате, геотехнологический рудник №3 в кратчайшие сроки вышел на стабильную плановую добычу со значительным снижением себестоимости.

В период работы геотехнологом РУ-5, В.П.Истомин координировал направление добычных работ по 4 рудникам и 10 месторождениям, принимал активное участие в разработке планов перспективного развития производства, программы проведения опытно-промышленных работ с применением нетрадиционных технологий на новых месторождениях и участках со сложными горно-геологическими условиями залегания рудных тел. В течение 2010-2012 годов были разработаны 4 программы.

- Ни одного дня не было скучно, ни разу не пожалел, что работал здесь, - говорит Владимир Петрович. - Атмосфера был творческая, молодёжь была инициативная. Из новичков, которые приходили к нам после окончания вузов и средних специальных учебных заведений, грамотных, знающих и искренне заинтересованных в своем деле ребят

видно было сразу, поэтому обучать их производству было интересно...

Надо сказать, что Владимир Петрович Истомин всегда считался отличным наставником молодых специалистов, щедро обучал их всему, что знал, поддерживал их инициативы. Многие из них в настоящее время занимают руководящие должности, являются ведущими специалистами. Среди его воспитанников можно назвать Наркузи Эгамбердиевичу Урдабаева - директора по производству ГП «Навоийуран», Машхура Амоновича Курбанова - заместителя начальника ЦНИЛ, доктора наук, Надира Дилмуродовича Хосилова - ведущего инженера-технолога службы главного технолога рудоуправления «Зафарбад», Максуда Равшановича Бозоралиева - начальника ГТР-3, Улугбека Зиятовича Шарафутдинова - начальника инновационного центра АО «НГМК», профессора и многих других. Владимир Петрович до сих пор живо интересуется ходом производства и поддерживает связь со своими коллегами, которые при необходимости советуются со своим наставником. Кроме того, по приглашению Совета ветеранов НГМК он часто участвует во встречах с молодёжью, где рассказывает о своей работе, делится опытом, отвечает на вопросы.

Владимир Петрович живёт в Зафарбаде, по его признанию, он патриот этого города, где созданы все условия для комфортного проживания.

- На моих глазах Зафарбад преобразился, - рассказывает он. - При мне построили 10 коттеджей для работников РУ-5, Дворец культуры, детский сад, современный вид приобрело здание управления. Я люблю воздух Зафарбада, размеренность его жизни, тишину. Природа пустыни удивительна, особенно весной, когда расцветают тюльпаны, появляются грибы. К тому же, есть хорошая рыбалка на Айдаркуле и Шуркуле, есть возможности для охоты в пустыне.

Как опытный наставник, Владимир Петрович, посоветовал молодёжи не бояться трудностей, смело задавать вопросы специалистам, проявлять инициативу, пытаться разобраться в каждой проблеме, и помнить, что отрицательный результат - это тоже результат, особенно в геологии.

Думаю, что такие дельные и добрые наставления станут стимулом для наших молодых работников и направлением для плодотворной работы.

**Насиба ШАМУПАТОВА.**

## ■ Mehnat jamoalarida

## REJA — ISHNING BOSHI

Navoiy kon-metallurgiya kombinati boshqarmasida sohani rivojlantirishga daxldor qator sohalar bo'lib, ularda o'z ishini bilimdoni bo'lgan mutaxassislar ishlamoqda.

Bundan ikki yil muqaddam tashkil etilgan kon ishlarini rejalashtirish bo'limini katta tajribaga ega, zamonaviy kompyuter dasturlarida muayyan bilimlar sohibi, yuqori malakali mutaxassis O'tkir Yo'l-doshev boshqarmoqda. Biz u kishidan bo'lim faoliyati, amalga oshirilayotgan ishlar haqida gapirib berishni so'radik.

— Respublikamiz iqtisodiyotida muhim o'rinni tutuvchi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bo'limimizda zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanilib, kon ishlarini 3D modellari asosida rejalashtiriladi, kombinat zaxirasida bo'lgan qazilma maydonlari halqaro standartlarga muvofiq bo'lgan JORC kodeksiga o'tkaziladi. Bu, korxonamizning jozibadorligini oshirib, chet el investorlarini tobora ko'proq jalb etishda yordam beradi. Yuqorida aytilgan amaliyotlar ilgari chet el kompaniyalari tomonidan shartnomalar asosida bajarilgan bo'lsa, ayni vaqtda bularning hammasi o'zimizda amalga oshirilmoqda.

Bo'lim jamoasi soha yo'nalishi bo'yicha ish tajribasiga ega, zamonaviy kompyuter dasturlarida ishlay oladigan yosh muhandislaridan iborat. Ular zamonaviy Datamine, Micromine, Mineflex va Minesched kabi kompyuter dasturlar yaratuvchilarining tajribali mutaxassislarini tomonidan o'qitilib malakalari oshirildi.

Jamoamizdagi har bir muhandis muayyan konlarni, jumladan, bo'lim bosh mutaxassisi F.Tolipov, muhandislar R.Fatullayev, L.Dusatov Shimoliy kon

boshqarmasi "Sharqiy" va "Dovgiztov" ochiq konlari, Sh.Erkinov Markaziy kon boshqarmasi "Muruntov" ochiq koni, O.Xudoyberdiyev, S.Eshmuradov "Auminzo-Amantoy" ochiq koni, "Qizilqum" kon boshqarmasi "Pistali", "Aristantov" konlari hamda Janubiy kon boshqarmasi "Marjonbuloq" va O'rtaliq ochiq konlarini rejalashtirish, Yo.Xamidov yer osti konlarining ma'dan zaxiralari qayta hisoblash va ularni raqamlashtirishga mas'uldirlar.

Shuningdek, konlarning strategik, ya'ni to'liq davri, konning yopilishiga qadar bo'lgan kon ishlarini olib borish taqvimini shakllantirish, qisqa muddatli kon ishlarini kalendari rejasini shakllantirish hamda kombinat oltin ruda zaxiralari JORC xalqaro standart asosida yillik hisobotini tayyorlash ham bo'limimiz vazifasiga kiradi.

Kombinatimizda mavjud "Muruntov", "Kokpatas", "Dovgiztov", "Turbay", "Pistali" va boshqa konlarning 3D modellari va kon geologik ma'lumotlaridan foydalangan holda ularning optimal chegaralarini aniqlash, qazib olishda ma'danlarga yot jinslarning qo'shilishini optimallashtirish, kon-transport texnikalari ehtiyojlarini hisoblash, konlarni qisqa muddatli, o'rta muddatli va istiqbolli kalendar jadvallarini shakllantirish va korxonalarining rentabellik darajasini aniqlashda zamonaviy kompyuter dasturlardan foydalanib kelmoqdamiz.

Ushbu dasturlar orqali konlarni o'zlashtirish bo'yicha uzoq muddatli kalendar rejalarni tayyorlash, geologik va



texnik ma'lumotlardan foydalangan holda ma'lumotlar bazasini qayta ishlash, taqvim rejasini tahlil qilish va variantlarni o'rganish, mineral resurslar va ma'dan zaxiralari baholash uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar va geomexanik parametrlarni hisobga olgan holda kon chegaralarini optimallashtirish, qazib birliklarining maqbul konturlari bo'yicha uch o'lchovli o'lchamdagi karyer, ag'darmalar loyihalari yaratish, tog'-kon ishlari, yuk oqimlarini taqsimlash yo'nalishlarini modelashtirish va konning butun ishlash davri uchun maqbul qazib olish jadvalini tanlash imkoniyatlariga egamiz.

Yaqin kelajakda barcha konlarda qisqa muddatli rejalashtirish ishlarining aniqlik darajasini oshirish, yangi Micromine Alastri kompyuter dasturini o'zlashtirish, konlarning oylik rejalarni har bir mexanizmning ishlash kovjoyini sut-

kalar kesimida rejalashtirish, bu orqali gidro-metallurgiya zavodlarini barqaror va sifatli ma'dan bilan ta'minlash, shuningdek, kombinatimiz tarkibiy bo'linmalarida ishlayotgan muhandis-xodimlarni ushbu zamonaviy kompyuter dasturlarini o'rganishida amaliy yordam ko'rsatish, barcha konlarda qisqa muddatli rejalashtirishni aniqlik va samarali yo'llarini o'rganishda kombinat oldida turgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarishda o'z hissamizni qo'shishni maqsad qilib qo'yganmiz.

Reja tuzish ishning boshlanishi, xolos. Uning bajarilishi esa har bir rahbar va xodimning aql-zakovati, tashabbuskorligi va fidokorona mehnatiga bog'liqdir.

**A.AXMEDOVA**  
suhbatlashdi.

## ■ Актуальная тема

## ПРОГРАММА ЛОКАЛИЗАЦИИ —

## драйвер развития экономического потенциала страны

Правительством Республики Узбекистан уделяется огромное внимание вопросу реализации возможности модернизации отечественной экономики через политику импортозамещения. Одним из перспективных направлений модернизации отраслей экономики является локализация высокотехнологичных современных производственных мощностей. Процесс локализации предусматривает экономико валютных резервов, создание новых рабочих мест и новых производств на собственной территории, а также стимулирует развитие наукоёмких отраслей экономики.

Для нашей страны импортозамещение на основе локализации промышленного производства является платформой для диверсификации экономики, окончания эпохи зависимости в импортной продукции и перехода к производству технологичной продукции с высокой добавленной стоимостью.

Выполнение Программы локализации остается неотъемлемой частью работы АО «НГМК», ее своевременная реализация привела не только к сокращению импорта, но и к улучшению ключевых экономических показателей. На сегодняшний день наряду с другими отечественными предприятиями, Навоийский ГМК является локомотивом производства локализуемой продукции.

Продукция, выпускаемая в рамках Программы локализации, направлена, в первую очередь, на обеспечение внутренних потребностей подразделений комбината в готовой продукции, комплектующих изделиях и запасных частях к технологическому, горно-шахтному, дробильно-сортировочному и другому оборудованию, которые ранее приобретались по импорту.

Также, в целях экономии валютных средств, в подразделения комбината активно ведутся работы по производству импортозамещающей продукции для реализации Инвестиционной программы комбината. Во исполнение поставленных Правительством республики задач Программа локализации АО формируется на основе проведенного анализа структуры импорта товаров, изучения потенциала производственных мощностей подразделений на возможность расширения номенклатуры и объемов производимой локализуемой продукции, экономики и рационального использования валютных средств.

Так, за последние три года Навоийским ГМК по Программе локализации освоено и произведено более 1000 видов продукции на сумму 1,6 трлн сум.

Навоийским ГМК ведется работа не только по увеличению объемов выпуска локализуемой и импортозамещающей продукции, но и по расширению ее номенклатуры. Так, анализ проделанной работы за 5 лет показал, что если в 2019 году номенклатура производимой импортозамещающей и локализуемой продукции состояла из более 800 видов, то в 2024 году запланирован выпуск продукции по 1400 видам. Следует отметить, что каждое подразделение комбината вносит свой неосценимый вклад в реализацию Программы локализации за счет освоения новых видов продукции, в том числе высоколиквидных.

В целях увеличения объемов производства локализуемой продукции, на сегодняшний день на Навоийском машиностроительном заводе завершена реконструкция литейного цеха с доведением общей массы готовой литейной продукции до 40 тысяч тонн в год и введен в эксплуатацию новый участок крупногабаритных цифровых станков, что позволит получать отливки весом до 50 тонн, изготавливать изделия массой до 200 тонн и диаметром до 12500 мм, тем самым, понизив затраты на обработку деталей.

Принимая во внимание значительный рост спроса на горнодобывающее оборудование и комплектующие к ним, в 2024 году выполнено углубление локализации рудоразмольных мельниц, а также капитальное восстановление буровых станков СБШ-250, что привело к экономии валютных средств на приобретение указанного оборудования и повысило экономическую эффективность производства в сопоставлении с мировой конъюнктурой рынка.

Для реализации вышеуказанных задач в этом году увеличен объем выпуска локализуемой промышленной продукции до 905,4 млрд сум.

Благодаря тесному научно-техническому сотрудничеству специалистов комбината с отраслевыми и малыми предприятиями в регионах, за последние годы удалось достичь оптимизации импорта также за счет освоения новых видов продукции на мощностях отечественных производителей.

Так, в результате совместных научных разработок с ООО «Chilon Lubricants» удалось освоить ранее закупаемую по импорту продукцию, используемую в изготовлении эмульсионных взрывчатых веществ.


Для изготовления шаровой мельницы МШЦ 55x75 весом более 700 тонн были разработаны совместные решения с АО «Узметкомбинат» на изготовление цельной цапфы, и со структурными предприятиями Министерства водного и сельского хозяйства Республики Узбекистан на изготовление синхронного электродвигателя мощностью 4 МВт.

В целях дальнейшего развития тяжелого машиностроения, на мощностях ПО «НМЗ» ведутся работы по высвобождению мощностей завода в другие подразделения комбината. Внедрен в практику механизм «взять на буксир», где предусмотрена частичная передача объемов изготовления и освоения запасных частей и комплектующих отечественным предприятиям с оказанием помощи в технологическом и инженерном направлениях.

Начиная с 2020 года по сегодняшний день, в рамках механизма «взять на буксир», от малых производителей для нужд комбината было поставлено продукции на сумму более 1 трлн сум, что привело к созданию новых рабочих мест, в разы увеличилось номенклатуру выпускаемой продукции, и, тем самым, сыграло немаловажную роль в развитии экономики региона.

Исходя из вышеизложенного, хочется отметить, что в нынешних условиях глобальных вызовов мировой экономики, к которым относятся замедление темпов ее роста, изменение валютных курсов, международная торговая-технологическая конкуренция, дополнительные тарифные ограничения сплоченный коллектив каждого подразделения комбината справляется с поставленными Правительством республики задачами по освоению и производству новых видов импортозамещающей и локализуемой продукции. На сегодняшний день, имея значительный экономический эффект от производства локализуемой импортозамещающей продукции, Навоийский ГМК вносит большой вклад в расширение и модернизацию производств, развитие технологии проектирования и поощрение инженерно-технических работников предприятий. Продолжаются работы по освоению новых видов импортозамещающей продукции в рамках Программы локализации с учетом производственного, научно-технического и трудового потенциала, а также по дальнейшему повышению уровня локализации существующих проектов.

**Фехруз МАРДОНОВ,**  
заместитель начальника отдела формирования и мониторинга программы локализации АО «НГМК».



## ■ Oramizdagi odamlar

Xalq shoiri jannatmakon O'zbekistonga ta'rif bera turib, "Ikki daryo yuvar kokilin" misralarini ishlatadi. Azaldan bu mintaqa uchun Amu va Sirdaryolar hayot chashmasi bo'lgan. Biroz mubolag'a bilan aytshak, Shimoliy kon boshqarmasining "Kokpatas" va "Dovgiztov" konlari ham bu korxonaning yuragi sanalgan 3-gidrometallurgiya zavodida ishlayotgan va Uchquduqda yashayotgan minglab odamlarning rizq manbai.

## KONNING XARITACHI SHOIRASI

Bu ikki konning oraliq masofasi ancha uzoq, ammo ma'dan "irmoqlari"ni temir yo'llar birlashtiradi. Yiliga 10 million tonndan oshiq ma'danning "oqib" kelishida ko'plab insonlarning mehnati, shijoati mujassam. Bu yerda 400 ga yaqin turli kasb egalari ishlashadi. Boshqa soha kabi kasblarining aytilish nomi biru, ammo xizmat vazifasi boshqacha.

Shoira opa Norqulova "Dovgiztov" ochiq usulda qazib olish koni geologiya-geofizika byurosi xaritachisi. Uning ish stolidi yigirma yil oldingi qog'ozlar va bugun xaritalash kerak bo'lgan kon hududlari uchun qog'ozlar yoyilgan bo'ladi. Har ish kunida Shoira opa shunday to'liqliy, to'g'ri chiziqni qog'ozga chizadi, lekin ularning portlatish ishlarida qanday ma'noga ega ekanligini uning o'ziyu hamkasblari tushunishadi.

Kon geologiya xizmatida loyihalari raqamlashtirilgan. Bajarilgan ishlarni Shoira opa qog'ozga tushiradi. Bu qog'ozlar yillar davomida Qizilqum kengliklarida yashirilib yotgan qimmatbaho ma'dan qatlamlarini o'rganish uchun asqotadi.

— Azaldan qog'oz va qalam odamzodning hamrohi bo'lgan. Bugun ham texnika va texnologiyalar har qancha rivojlanmasin, ishimizda eng ishonchli manba qog'ozdir, — deydi qahramonimiz.

Sh. Norqulova og'ir, bosiq ayol. U xato qilishi mumkin emas. O'z tiili bilan aytganda, gorizont eng muhim nuqta. Geologlar uning ko'rsatmalari bilan keyingi ishlarini davom ettirishadi. Shoira opa ishini yaxshi ko'radi. Olti yoshida qirg' yoshga ham yetmagan onasidan ayrilib yetim qolgan. Shundanmikan topsa-topmasa hamma-dam ham mehr izlagan, mehr bergan. Ishiga, kasbiga, odamlarga. Ana shu xislati bo'la unib-o'sgan manzili Buxoro viloyati Qorako'l tumani Sho'roboq qishlog'idan "eng yaxshi qiz"ni axtarganlar xonadoniga kelin bo'ldi. Qaynotasi Said aka Jumayev Markaziy geologiya-qidiruv qo'nyoyasi Baxmal opa "Samarqandgeologiya" uyushmasi "Dovgiztov" geologiya-qidiruv ekspeditsiyasida ishlardi. Qaynona-qaynota o'z farzandlarini emas, endigina oila a'zosisga aylangan, oyoq-qo'li chaqqon



kelinlarini yonlariga ishga olishdi. U esa erinmay geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi ishlarini o'rgandi.

O'ttiz uch yil ilgari "Samarqandgeologiya" uyushmasi "Dovgiztov" geologiya-qidiruv ekspeditsiyasida ish boshlagan Shoira opa 2002-yilning 1 martida u kelin bo'lib tushgan qo'rg'onchada ochilgan "Dovgiztov" koniga birinchilardan bo'lib ishga olindi.

Shundan buyon "Dovgiztov" koni alohida ochiq usulda qazib olish ishlarida Shoira opa Norqulova chizib bergan xaritalar bilan portlashish ishlarini amalga oshirilib kelinmoqda. Kon jamoasining asosiy vazifasi — 3-gidrometallurgiya zavodiga ma'dan yetkazib berishdir.

Ayni damda mazkur bo'linmada 700 nafarga yaqin ishchi-xodim mehnat qilmoqda. Ularning aksariyati ekskavator va burg'ilash uskunasi mashinistlari, navbatchi chilangarlar, navbatchi elektrchilangarlar, kon ishchilari kabi 34 turdagi kasb egalari, Shoira Norqulova kabi taqdir egalari. Ularning matonati tufayli "Dovgiztov" koni kundun-kunga kengayib, yangi kar'erlar ochilyapti. "Dovgiztov", "G'arbiy Dovgiztov", "Adjibugut", "Birinchii sentabr" va "Davon" karyerlarida kon ishlarini olib borilmoqda va kelgusida ular yanada kengayadi.

Laylo KARIMOVA.

## ■ "Navoiyuran" davlat korxonasida

Zafarobod qo'rg'onidagi "Yoshlik" madaniyat uyida O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining maqsadi va mazmun-mohiyati muhokamasiga bag'ishlangan maxsus o'quv-seminari o'tkazildi.



## GENDER TENGLIGI — E'TIBOR MARKAZIDA

Unda Navoiy viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i D.G'afforova, viloyat Adliya boshqarmasi bo'lim boshlig'i D.Kattayeva, "Baxt qasri" tashkiloti psixologi S.Arziqulova va "Zafarobod" KB xotin-qizlar Kengashi raisi X.Aramovalar hamda "Zafarobod" kon boshqarmasi bo'linmalari ishchi-xodimlari ishtirok etdi.

Seminarda O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, ushbu yo'nalishdagi qonunchilikdagi o'zgarishlar hamda xalqaro tajriba va amaliyot masalalari to'g'risida so'z bordi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar tomonidan gender tenglikni ta'minlash har qanday rivojlangan demokratik davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida muhim ustuvor yo'nalish hisoblanishi, bu jamiyatning asosiy negizi bo'lmishi — oila mustahkamligini ta'minlashda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi ta'kidlandi.

Qizg'in savol-javob tarzida, muhokamalarga boy o'tgan seminar yakunida gender tenglik masalalari yuzasidan mahoratli psixolog tomonidan qiziqarli ma'ruza va suhbatlar olib borildi.

"Navoiyuran" DK axborot xizmati.



Yo'l bo'shat, zamona,  
Yo'l bo'shat jahon! —

# O'ZBEK KELAYOTIR...

**“Farhod” madaniyat saroyi ijodiy guruhi tomonidan ozar shoiri Akif Bag'irning “O'zbek kelayotir...” she'riga yaratilgan qo'shiq keng ommalashib ketdi. Davlat tadbirlari, bayramlar, davralar, ijtimoiy tarmoqlarda baland ruhda yangramoqda.**

Har qanday qo'shiq o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Uning yaralish tarixi bo'ladi. “O'zbek kelayotir...” qo'shiqining katta sahnaga kirib kelishi va yaralishi ham mana shunday ta'rif va talqiniga ega. Buni “Farhod” madaniyat saroyi direktori Oybek Rahmatov shunday izohlaydi:

- Navoiy kon-metallurgiya kombinati madaniyat muassasalari badiiy jamoalarining Toshkentdagi nufuzli madaniyat saroylarida “Qizilqum javohirlari” konsert dasturini namoyish etishi an'anaga aylangan. Bu yilgi konsertga tayyorgarlik ketayotgan qizg'in bir pallada kombinat rahbariyati jamoamiz bilan uchrashish uchun kelayotgani aytiladi.

Birozdan so'ng vakillar biz to'plangan “NKMK tarixi” muzeyi zaliga kirib keldi.

Yig'ilish mavzusi san'at, uning darg'alari, ijod, qo'shiqlar haqida bordi. Milliy, mumtoz, maqomchilik san'atimiz, ular bizga umrbogiy meros ekanligi, buni yoshlarimiz ongiga chuqur singdirish kerakligi, shu bilan birga, sohada ayrim muammolar, san'atkorlar o'z ustida ishlamay qo'yganligi haqida kuy-unchaklik bilan fikr-mulohazalar aytiladi.

Shundan so'ng, muhokama poytaxtda o'tadigan tadbirga tayyorgarlik, madaniyat saroyimiz faoliyati, izlanishlarni kuchaytirish, yangi-yangi qo'shiqlar yaratishga ulanib ketdi. Tahliliy-tanqidiy ruhda o'tgan mazkur yig'ilish, yashirishga ne hojat, men san'atkor, deganing qalbinu uyg'otdi.

- Xalqqa manzur, ertaga o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydigan qo'shiqlar yaratish uchun, eng avval, yaxshi she'r tanlash, unga mos kuy yaratish va mahorat bilan ijro etish talab etiladi. San'atkor, degani tinmay izlanishi, intilishi, o'z ustida ishlashi zarur. Xalqimiz

siz, san'at ahli bilan mana shunday ohanglarni kutayapti, - dedi Quvondiq Sanaqulovich. - Buning uchun jamoaga barcha sharoitlar yaratib berilgan. Bu yerdagi imkoniyatlar respublikamizda eng oldingi saflarda bo'lgan saroylardan aslo qolishmaydi. Kerak bo'lsa, talabga qarab yana yangi imkoniyatlarni yaratib beramiz. Buning uchun esa “Farhod” madaniyat saroyi jamoasi qattiq ishlashi kerak.

O'rinni talab. Va yana har bir e'tiroz zamirida jon bor. Bu, biz san'atkorlar uchun yangi cha aks-sado berdi. Zero, bu e'tiborga biz o'z iste'dodimiz, yutuqlarimiz bilan javob berishimiz kerak bo'ladi.

- Yana bir taklif aytmoqchiman. Mana shu qo'limdagi “Vatan” jurnali! Uning ilk sahifasida Ozarbayjon shoiri Akif Bag'irning “O'zbek kelayotir...” she'ri berilibdi. She'rni qayta-qayta o'qib chiqdim. Haqiqatda, u zo'r, yuksak mahorat, keng tafakkur, did, iste'dod bilan yozilgan. Har bir isyonkor so'zu satrida chuqur ma'no va mazmun bor. Unda, millatimiz sha'ni, shon-shuhrati, bugungi davr ruhi ulug'langan. Shunga birgalikda kuy bastalajak, qo'shiq va klip yaratajak, nima deysizlar!?

Taklif bir ovozdan ma'qullandi. Yig'ilish yakunida “Vatan” jurnalini qo'limizga tutqazib, bajarishimiz lozim bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha o'zining maslahat va tavsiyalarini berib, oldimizga aniq vazifalarni qo'ydi.

Men ham she'rni takror-takror o'qidim. Uning misralari, she'r g'oyasi meni ham o'ziga ohanrabodek rom etdi. Aytilganidek, she'r zo'r, so'zi sozga mos, ayni qo'shiq bo'lgan. Shunda, biz o'z sohasining yetuk rahbari, olim sifatida yaqindan bilgan Quvondiq Sa-

naqulovichning yaxshi she'rni tanlash qobiliyati, ijod va san'at sohasida zukko ekanligiga qoyil qoldik.

Shu tariqa, she'rga qo'shiq bastalash ishlari boshlab yuborildi. Bunga, madaniyat muassasidan eng mahoratli mutaxassislar Sherzod Davronov, Serijan Janaxmetov, Samandar Hamidov, Komila Qarshiyeva, Fozil Davronov, Ravshan Tolibov, Shavkat Zoyirov va men jalb etildik. Bir haftalik sa'y-harakatdan so'ng qo'shiqning dastlabki namunasi tayyor bo'ldi.

Bir kuni biz, ya'ni, men, Komila va Ravshan uchovimiz kutilmaganda kombinat boshqarmasiga chaqirildik. Xonaga kirib borganimizda, bosh direktorimiz biz taqdim etgan “O'zbek kelayotir...” qo'shiqining nishona variantini diqqat bilan eshitib o'tirgan ekan.

Suhbatimiz qo'shiq-ijro-klip uyg'unligi, ayniqsa, musiqa va uning ijroga mosligi haqida bordi. Quvondiq Sanaqulovich bu boradagi kamchilik va yutuqlarni bizga aniq-aniq ko'rsatib, sanab berdi. Ayniqsa, rahbarimizning qo'shiq musiqasi haqida bir san'atkordan ziyoda anglagan xulosalari, bastakorlarga xos fikrlashi, aytgan har bir gapi hammaimizda hayrat va katta taassurot qoldirdi.

Fikr-mulohazalari muhtasari alohida ur-g'u berib:

- Nazarimda, tayyorlagan qo'shiq va klip-laring, kuy va ijro, roliklar ustida hali qattiq ishlash kerak, - dedi.

Oradan hech qancha vaqt o'tmadi. Telefonim jiringlab qoldi. Go'shakni ko'tardim. Quvondiq Sanaqulovich ekan.

- Yo'ldaman, borayapman, qo'shiq-klip ustida birga ishlaymiz, - dedi.

Saldan so'ng studiyamizga kasaba uyushmasi Kengashi raisi Isroil Qurbonovich Rahmatov bilan birga kirib keldi. Jarayon boshlandi. Ikki soatlar chamasini ishladik. Kuy, qo'shiq va klip taklif va tavsiyalar asosida tahrirlandi, to'ldirildi. Va nihoyat biz rahbariyatdan uzoq kutgan javobni oldik.

- Menimcha, endi qo'shiq va klipimiz hammaimiz kutgan darajaga keldi. Yelkamizdan katta tog' ag'darilgandek bo'ldi.

Mana ko'rib turib, Sherzod Davronov, Serijan Janaxmetov, Samandar Hamidovlar tomonidan mahorat bilan ijro etilgan, men tomondan ifodali o'qilgan, bir guruh hamkasblarimiz tomonidan dizayn va ishlov berilgan “O'zbek kelayotir...” qo'shiqimiz muxlislarga ma'qul keldi. Xalqimizning olqishiga sazovor bo'lmoqda. Biz, ya'ni, bu jarayonda ishtirok etgan har birimiz bundan nihoyatda xursandmiz. Buning uchun, eng avvalo, shunday buyuk she'rni yaratgan ozar shoiriga, unga qo'shiq qilish g'oyasi tashabbuskori va muallifi bo'lgan, o'zining maslahat va takliflarini aya-magan rahbariyatga o'z minnatdorчилиgimizni bildiramiz.

Bilasizmi, bu qo'shiq har gal katta-kichik sahnalarda baralla yangraganda qalbimiz cheksiz faxru iftixorga to'ladi. Bunda, bizning ham hissamiz borligidan quvonamiz. Ayniqsa, yurtdoshlarimiz, hamkasblarimiz, san'at ahli e'tiroflari bizning yangi kuy-qo'shiqlar yaratishimizga yanada ilhom bag'ishlamoqda.

Muxtasar aytganda, “O'zbek kelayotir” qo'shiqining yaralish tarixi va talqini shu.

**Suhbatdosh: Abdumajid JO'RAYEV.**

## ■ Tibbiyot

# SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

**Barcha davrlar va yurtlarda salomatlik insonning eng katta boyligi hisoblanadi. Sog'lom kishi har qanday jamiyatda yetakchi, yaratuvchanlik ishlarini bajaruvchi kuchdir.**

**Salomatlik inson intellektual va jismoniy qobiliyatining vositasi, manbai sifatida unga quvonch bag'ishlashi tabiiy.**

Ko'rinib turibdiki, salomatlik odamzot hayotida asosiy ahamiyatga ega bo'lib, kasbiy yetuklik hamda ijodiy o'sishining birinchi darajali shartidir. Mutaxassislarining fikricha, aholi salomatligining yigirma foizi irsiy omillarga, yigirma-o'ttiz foizi atrof-muhit ta'siriga, qir-qirik foizi turmush tarziga va o'n foizigina sog'liqni saqlash xizmati darajasiga bog'liq ekan. Demak, sog'lom turmush tarzi salomatlikning, boshqacha aytganda, uzoq umr ko'rishning muhim shartlaridandir.

O'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish borasida tub o'zgarishlarni amalga oshirmay turib, yoshlarimizning ma'naviy, axloqiy va jismoniy rivojlanishi masalalari hal etib bo'lmaydi. Shu boisdan kelajak avlodni sog'lomlashtirish konsepsiyasi yoshlarning o'z salomatligiga munosabatini tubdan o'zgartirish, jismoniy harakatga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish va sog'lom dam olishini tashkil etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Zararli odatlarni, noto'g'ri ovqatlanish, alkogol ichimliklarini me'yori-

dan ortiq iste'mol qilish, tamaki chekish, ko'p o'tirish, stress, atrof-muhit iflosligi yurak-qon, nafas olish sistemasi kasalliklarini keltirib chiqarishi, oshqozon-ichak funksiyasining buzilishiga olib kelishi ma'lum. Abu Ali ibn Sino salomatlikni asrash, kasalliklarning oldini olish uchun jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish zarurligini ko'p bora ta'kidlagan.

O'zbekiston aholisining 33,3 foizi yoki har uchinchi fuqarosi 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlardir. Ayni paytda yoshlar salomatligi jiddiy tashvishlantirmoqda. Hayotning davomiyligi rivojlangan mamlakatlardagidan yetti yilga kam. Bu farq yildan-yilga o'zgarib bormoqda. O'quvchilar va talabalar salomatligi yomonlashib borayotganligi kuzatilayapti. Gerontologlarning kuza-tishlari natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Hayot davomiyligining o'sishi deyarli to'xtadi. 35-40 yoshda o'lim hol-lari ko'payib bormoqda. Shu yoshdagi erkaklar o'rtasida kasalliklar soni o'sa-

yapti. Maktab o'quvchilarida aterosklero-z va gipertoniya kasalliklari alohiddan qayd etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi mutaxassislari bergan ma'lumotlarga muvofiq birinchi sinf o'quvchilarining 70-80 foizida kasalliklar mavjud. Bu kasalliklar o'smirlar davriga kelib surunkali ko'rinish kasb etayapti.

Masalan, 1-sinf o'quvchilarining 15-20 foizida kuzatilgan asab-ruhiy buzilishlari 8-10-sinflarga kelib 50-80 foizga ko'paymoqda. Ortopedik potologiyalar 10-15 foizdan 50-80 foizgacha oshmoqda. Sog'lom inson-yuqori mehnat unumdorligini yaratuvchi sifati ish-chi kuchidir. Ulug'larimiz aytganidek, “Kuchli mo'min kuchsiz mo'mindan afzalroqdir”. Shunday ekan, salomatligimizga e'tiborliroq bo'lishimiz, hayotimizga sog'lom turmush tarzini singdirishimiz, spirtili ichimliklar iste'mol qilish, tamaki chekish kabi yaroqsiz odatlardan voz kechishimiz, jismoniy tarbiya, ochiq havoda piyoda yurishni kanda qilmasligimiz, to'g'ri ovqatlanishimiz va dam olishimiz lozim. Doimo shifokorlar nazoratida bo'lib, ularning maslahatlariga amal qilish kerak.

**Baxitgul UTEMURATOVA,**  
**Tibbiy-sanitariya bo'limi**  
**poliklinikasi terapevt-vrachi.**

## ■ Sport

# FAXRIYLAR SPORTNING MINI-FUTBOL TURIDA BELLASHDILAR

**Har yili mamlakatimizda mehnat faxriylari o'rtasida mini-futbol bo'yicha “NKMK ochiq turniri” o'tkazib kelinadi. Bu yil ushbu turnirga 20 yil to'ldi. O'zbekiston futbol Assosatsiyasi unga respublika darajasidagi turnir maqomini berganligi tadbirning ahamiyatini yanada oshirdi.**

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 33 yilligiga bag'ishlab mini-futbol bo'yicha faxriylar o'rtasidagi navbatdagi musobaqalar Navoiy shahridagi “So'g'diyona” o'yingohida bo'lib o'tdi. Turnirda Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm, Andijon, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan 20 ta jamoa ishtirok etdi.

- Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy ifodasi sifatida ushbu sport tadbiri tashkil etildi. Faxriylarimiz jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish tarafdori. Sport yuksak madaniyat, va-



tanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi, - deydi “NKMK” jamoasi sardori Akmal Xoliqov.

“NKMK ochiq turniri” final bosqichi “Bolajon” bolalar sog'lomlashtirish oromgohida o'tkazildi. Uch kunlik sport musobaqasi natijalariga ko'ra, “NKMK” jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, Buxoro viloyatining “Buxoro” va Xorazm viloyatining “Urganch” jamoalari 2-va

3-o'rinlarga sazovor bo'lishdi. “Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!” shiori ostida mini-futbol bo'yicha o'tkazilgan “NKMK ochiq turniri”ning yopilish marosimida g'olib jamoalarga NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan diplom, medal va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

**Azamat ZARIPOV.**